



Tadqiqot uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**28 FEBRAL
№25**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
15-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ- 15**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART- 15**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 25-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУСИҚА ВА ҲАЁТ

| | |
|--|---|
| 1. Nomanova Dilduzaxon Muxtorovna | |
| MUSIQA FANINING MAQSADI..... | 7 |
| 2. Hazratova Nasiba Axmatovna | |
| MUSIQA KENG QAMROVLI TUSHUNCHA VA UNING YARATILISHI..... | 9 |



МУСИҚА ВА ҲАЁТ

MUSIQA FANINING MAQSADI

Nomanova Dilfuzaxon Muxtorovna
Marg'ilon shahar 19-maktab
musiqa madaniyati fani o'qituvchisi
e-mail: nomanova@gmail.com

Annotatsiya: maqolada musiqa fanini o'qitish orqali o'quvchi shaxsini shakllantirish, musiqani anglash, o'quvchining estetik didini rivojlantirish, musiqa fani o'qituvchisining vazifasi kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, shaxs, inson ruhiyati, musiqani o'qitish

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Har bir insonni ma'naviy shakllanishida oilani, maktabni, jamiyatni ahamiyati katta. Chunki insonni insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi. Maktabda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish ularni zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazish. Maktabda musiqa darslarini o'qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: - o'quvchilarni musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishi va mehr-muhabbatini oshirish; - musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlari musiqiy o'quvi, ovozi, diqqat-e'tibori va ijodkorlik his-tuyg'ularini o'stirish; - musiqiy asarlarni badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida axloqiy-estetik ruhda tarbiyalash; - musiqa darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, mehnatga muhabbat, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish. Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratlariga bog'liq. Har qanday san'atkor ham, maktabda musiqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqa o'qitish va metodikasi hamda o'z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bolishi lozim. Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, so'z chalishga o'rgatish ota-ona orzusi hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg'u asboblardan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'naviyatli, go'zallikni his eta oladigan inson bolishi kerak. Xalqimiz kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga uning dunyoqarashiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisoslarga doir fanlarni o'qitish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish bugungi kun talabidir. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini amalga oshirilishi munosabati bilan o'qituvchilarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishlari diqqat markazidadir. O'qituvchilik kasbi sharafli, lekin juda murakkab



kasbdir, o'qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalarni sevishi, pedagogik amaliyotni ham o'tgan bo'lishi kerak. Chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o'qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi kiyinish madaniyati va nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerak. U o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'rishi hamda ularni barkamol inson sifatida kamol topishiga ko'maklashishi, har bir darsni o'quvchilarni hayot tajribasiga bo'ladigan holda olib borishi, xilma-xil metodlar, innovatsion texnologiyalar, ko'rgazmali qurollar, kompyuter slayd, tarqatma materiallaridan foydalanishi kerak. O'z kasbiy mutaxassisligini puxta egallagan bo'lishi, bolalar ovozigacha ovozi moslab kuylay olishi, ijrochilik mahoratiga ega bo'lishi, sinfdan tashqari to'g'araklarga o'quvchilarni jalb etish bilan turli tanlovlarda, tadbirlarda o'quvchilarni faol ishtirok etishi kerak, o'qituvchi har bir darsni senariy muallifi, artisti, ijrochisi hamda rejissyori bo'lishi bilan birga zamon bilan hamnafas qadam tashlashi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilik kasbini egallash uchun, albatta, kasbiy qobiliyatlar bilan birga jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lishi darkor. Buyuk pedagog A.Avloniy shunday degan edilar "Tarbiya qiluvchilar tabib kabitdirlar, tabib hastani badanidagi kasallikka davo qilgani kabi, o'qituvchi ham bolani musiqa orqali, aqliy rivojiga diqqat markaziga ta'sir etib, ularda poklik, vijdon, sadoqat, mehr, kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat kabi tuyg'ulami tarbiyalaydi". "Tarbiya biz uchun yo hayot yo momot, yo najot-yo halokat. Yo saodat-yo falokat masalasidir" deb yozgan edi. Shunday ekan, hozirgi davrda, musiqa o'qituvchisidan mas'uliyat, fanga yangicha yondashuv uning metodologiyasini chuqur o'rganish talab etadi. Umumta'lim maktablarida esa, musiqa madaniyati darslarning asosiy maqsadi, o'quvchilarda musiqaga qiziqish uyg'otish vositasida musiqiy madaniyatini tarkib toptirish. Zero, kuy va ohang ta'sirida inson ezgulikka intilish, go'zallikni asrash, ona tabiatga, ona Vatanga muhabbat his-tuyg'ularini shakllantirib, ma'naviy dunyosini boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Fayzieva boshqalar.«O'zbekistan maktablarida musiqiy nafosat tarbiyasini tashkil etish buyicha metodik qo'llanma». - T.: «Navoiy azot» nashriyoti, 1992 y.
2. G.M.Sharipova. «Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish uchun metodik qo'llanma». -T .: RTM nashriyoti, 2001 yil.



MUSIQA KENG QAMROVLI TUSHUNCHA VA UNING YARATILISHI

Hazratova Nasiba Axmatovna
27-umumiy o'rta ta'lim maktab
I toifali musiqa fani o'qituvchisi
99-700-88-01

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqaning yaratilishi, musiqaning hayotdagi o'rni, yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati va shu sohadagi yangiliklar haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy musiqashunos, arxeologiya va etnografiya, ijtimoiy muloqot vositasi, aholi zich yashovchi massiv

Inson hayotida musiqa muhim o'rin egallaydi. Musiqa insonning ichki dunyosini shakllantiradi, voqea-hodisalarni to'g'ri baholashga yordam beradi. Badiiy didni tarbiyalaydi. Musiqani yoqtirmaydiga inson bo'lmasa kerak. Musiqa eng yuksak tuyg'ular va eng nozik kechinmalarni ifodalaydi. Musiqa bu-yagona dunyo tili, uni tarjima qilishning hojati yo'q.

Musiqa qalbdan kundalik hayotdagi changni yuvadi. San'atning buyukligi musiqa ichida aniq namoyon bo'ladi. Musiqa ko'pincha inson kayfiyatini o'zida aks ettiradi. Shu asnoda, misol uchun, rulda haydayotgan kishiga eng yaxshi musiqa bo'lib, elektron musiqa hisoblanadi, homilador ayollarga esa olimlar klassik musiqani eshitishni tavsiya qilishadi, axir aynan shunaqa musiqa dunyoga keladigan bolakayning kelajakdagi musiqiy didini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqaning paydo bo'lishi masalasida turli ilmiy farazlar vujudga kelgan. Hissiyotga to'lgan nutq ohangi, qushlarning sayrashi va hayvonlarning o'z juftlarini chaqirishi, ibtidoiy odamlarning mehnat usullari va ularning chaqiriq tovushlari, jodu-sehrlash marosimlari musiqaning ilk manbalari hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari ham musiqaning vujudga kelishi muammosi haqida ilmiy mulohazalar ham qoldirishgan. Musiqa tarixini Farobiy inson nutqini shakllanish jarayoni hissiyotlari bilan bevosita bog'liq holda, Ibn Xaldun XIV asrda esa –ijtimoiy tizimlarning shakllanish qonuniyatlariga asoslangan holda tushuntirishgan.

Zamonaviy musiqashunoslik fani arxeologiya va etnografiya ma'lumotlaridan kelib chiqib musiqa san'atining ibtidoiy jamiyatda insonning amaliy faoliyati jarayonida boshqa san'at turlari raqs, she'riyat va boshqalar bilan qorishma holda paydo bo'lishini asoslab beradi. Bunda musiqaning ijtimoiy muloqot vositasi, mehnat va marosim jarayonlarini tashkil etish vositasi bo'lib xizmat qiladi va ayni vaqtda jamiyatga zarur axloqiy -ma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash maqsadlarini ko'zlaydi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016-2020 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida”gi qarori asosida tizimda amalga oshiriladigan ishlar” mavzusida matbuot anjumani tashkil etildi. Unda Xalq ta'limi vaziri, vazirlik mutasaddilari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Yangi Davlat dasturiga muvofiq 2016-2020 yillarda aholi zich yashovchi massivlarda jami 14700 o'rinli 98 ta bolalar musiqa va san'at maktablari barpo qilish ko'zda tutilgan. Shundan 2016 yilda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi belgilangan 18 ta bolalar musiqa va san'at maktablarining hududlar bo'yicha manzilli dasturi ishlab chiqildi.

O'zbek xalk musiqa merosini o'rganish zamonaviy notaga olishini tarixiy jarayonida A.F.Eyxgorn, N.N.Mironov, V.A.Uspenskiy, Ye.E.Romanovskaya, M.Ashrafiy, T.Sodiqov, SH.Ramazonov, Yu.Rajabiy, M.Yunusov, A.Xalilov, I.Akbarov, F.Karamatov, M.Axmedovlarni nashr etilgan to'plamlari V.A.Uspenskiyning Buxoro SHashmaqomi N.N.Mironov rahbarligida M.Ashrafiy, T.Sodiqov, va SH.Ramazanovlarni Buxoro, Farg'ona va Xiva qo'shiqlarni to'plami, Ye.E.Romanovskayaning ikki o'zbek Xalk qo'shiqlari, Xorazm klassik musiqasi, o'zbek laparlari, o'zbek cholg'u musiqasi. Nashrga I.Akbarov to'plagan: O'zbek vokal musiqasi Muqimiy va Furqat ashulalari. (1958y) to'plamlarni notaga oluvchilar; V.Uspenskiy, Ye.Romanovskaya, CHetvertakov, Muhammad Aliev, I.Akbarovlar. Yu.Rajabiyning besh tomli «O'zbek xalk musiqasi» (1955 – 1985), olti jildli «SHashmaqom»(1966 – 1975), M.Yunusovning «Xorazm ashulalari» (1959), «Xorazm maqomlari» (1962), ikkinchi nashr «Xorazm maqomlari» (1981 – 1985), A.Xalilovning «Qoraqalpok xalq na'malari» (1959), F.Karomatovning «O'zbek xalk musiqa merosi» (1978), ikkinchi kitob «O'zbek xalk musiqa merosi» (1985), «O'zbek doyra



musiqasi» (1962), Toshkent konservatoriyasining sharqshunoslik kafedrasida xalq musiqasi qo'li yozmalari.

O'zbek folklorshunoslik fanini rivojlantirishda A.F.Eyxgorn, N.N.Mironov, A.Fitrat, V.A.Uspenskiy, Ye.E.Romanovskaya, Il.Akbarov, F.Karamatov, R.Yunusov, O.Ibrohimovlarning faoliyatlarini, ularning yaratgan ilmiy ishlarini, maqolalar, broshyuralar va kitoblar tug'risida, ma'lumotlar va misollarni o'qish tavsiya qilinadi.

Manbashunoslik fanini nazariy va tarixiy sohalarini rivojlanish jarayoni. Mazkur sohalarida musiqashunoslar tomonidan yozilgan va nashr qilingan kitoblar va to'plamlar, broshyuralar, ilmiy maqolalar va o'quv tadqiqot manbalarni yaratishda: A.Fitrat, T.Vызgo, V.Uspenskiy, O.Matyobov, S.Begmatov va boshqa musiqashunoslarning faoliyatlari. Ular yozgan maqola, kitoblar mavzular orqali talabalarga tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek mumtoz musiqasi: R.S.Abdullayev. 2008 yil
2. Musiqa 6-sinf: S.Begmatov, D.Karimova, Q.Mamirov. 2008 yil
3. Musiqa o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma). N.Yusupova. –T, 2020
4. Musiqaning elementar nazariyasi. Q.Rahimov. –T. 2007

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(15-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
